

Ta'lim Va Ma'rifat Muassasalari (Madrasalar, Maktablar)

Matyakubova Mubarak Madrimovna,

associate professor of the Department of History

Urgench State University


E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

Annotatsiya: XVI - XVIII asrlarda Xiva xonligida qurilish va me'morchilik ishlariga alohida e'tibor berildi. Bir qancha madrasalar, masjidlar, saroy va jamoat binolari, qal'alar qurildi. Ularda Xorazmning o'tmishdagi qurilish va me'morchilik san'atining eng yaxshi an'analari davom ettirilganligi ko'riladi. Xorazm me'morchiligida dastlab, madrasa va maschit binolari ancha sodda va oddiy bezaklar hamda rang-barang bo'yoqli koshinlar bilan bezatilgan. Ushbu maqolada Xiva xonligidagi ta'lim muassasalari va ularning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, madrasa, mudarris, maktab, me'morchilik, masjid, karvonsaroy, bozor, oxund.

Kirish. Tarixiy arxeologik va yozma manbalarga tayangan tarixchi olimlar Xiva me'moriy obidalarining qurilishini to'rt tarixiy davrga bo'lishgan. Birinchi davr - shahar qal'a devorlarining qurilishi; ikkinchi tarixiy davr XIII-XIV asrlar yodgorligi; uchinchi tarixiy davr XVI-XVIII asrlar me'morchiligi; to'rtinchi tarixiy davr XVIII asrning to'rtinchi choragidan - XX asr boshlaridagi bunyodkorlik ishlaridir[1, B.32.]. Madrasa atamasi arabcha "darasa" ("o'rganmoq") fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, "o'rganish joyi" yoki "ta'lim muassasasi" ma'nosini anglatadi. Islom dunyoqarashida madrasalar o'rta va oliy diniy ta'lim muassasalari sifatida faoliyat yuritgan. Masjidlar ham bu davrda Xiva me'moriy muhitining muhim qismini tashkil etgan. Xiva me'moriy yodgorliklari qatorida minoralar ham diniy, ham amaliy ahamiyatga ega inshootlardan ekanligini inkor qila olmaymiz.


Adabiyotlar tahlili. Xivada madrasalar qurilishi XVII asrdan boshlab ommaviy tus oldi va XIX asrga kelib yuqori cho'qqi chiqdi. XVII asrda Xiva shahrida 2 ta, XVIII asrda 3 ta madrasa qurildi. XIX asr boshlariga kelib, Qo'ng'iro't sulolasi xonlari Xivani go'zal qiyofaga kiritish ishlarini boshladilar[2, C.106.]. 1871-yilning o'zida Xiva shahrida 5 ta yirik madrasa, chunonchi Otajonboy madrasasi, Muhammad Rahimxon II madrasasi, Muhammad Niyoz devonbegi madrasasi, Muhammad Murod devonbegi madrasasi va To'ramurod to'ra madrasalari qurilganligi buning isbotidir[3, B.42.]. XIX asrda jami 45 ta (shundan 16 tasi Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin qurilgan, 14 tasi saqlanmagan), XX asr boshlarida 14 ta madrasa qurilgan[4, B.58.]. Ma'lumotlarga qaraganda, XIX asrning 40-yillarida Ichan qal'ada xon saroyidan tashqari 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va katta bozor bo'lgan. XX asr boshlariga kelib esa Xivadagi masjidlar soni 93 taga, madrasalar esa 63 taga yetgan[2, B.88.]. Akademik Yahyo G'ulomov «Xiva shahri obidalari» monografiyasida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva shahrining o'zida 36 madrasa bino qilinganligini ko'rsatib o'tadi[5, C.41.]. XX asr boshlarida xonlikda jami 130 madrasa 1636 masjid bo'lganligi[6, B.100.] haqida ma'lumotlar bor. O.Qo'shchanovning XIX asr oxiri - XX asr boshiga kelib, Xiva xonligida har birida 50 nafar talaba ta'lim olgan 130 madrasa mavjud bo'lgan. Bir vaqtning o'zida xonlikda 51500 nafar kishi ta'lim olganligi to'g'risidagi fikrlari shu joyda o'rinalidir[7, B.2.]. Madrasa o'qituvchisining ish haqi 90 botmondan 330 botmongacha bo'lardi. Xivaning yirik madrasalarida talabalar soniga qarab oxun-o'qituvchilar soni ham oshib borgan[3, B.52.]. Ilmli, o'qimishli kishilardan tayinlangan mudarrislar talabalarning bilim olishi uchun eng asosiy javobgar shaxslar sanalganlar. Katta madrasalarda oxunlar soni ko'p bo'lgan. Arxivda saqlanayotgan 8 varaqdan iborat hujjatda ham, XX asr boshida Xivadagi 56 ta madrasada 120



nafar mudarris, 120 nafar imom, 3300 nafar talaba, 59 nafar farrosh, 59 nafar suvchi, 120 nafar muazzinlar bo'lganligi qayd etilgan[8.].

H.Yusupov tadqiqotlarida Xiva shahrida madrasalarning birinchisi Arab Muhammadxon (1616-yilda), oxirgisi esa Qoziaskar madrasasi (1916-yilda) qurilganligini ta'kidlagan[9,B.67.]. Xiva xonligida Rossiya imperiyasi protektorati o'rnatilgandan so'ng madrasalar soni ikki barobar kamayib, 65 tani tashkil qilgan. Bu inshootlar asosan oliy hukmdorlar, hukmron sulola vakillari, amaldorlar, diniy arboblari va muayyan hajmdagi moddiy boyliklarga ega shaxslar tomonidan qurdirilgan[4, B.158.]. Abdulla Boltayev XIX asrda Xiva xonligida mashhur madrasalar qatorida quyidagilarni keltirib o'tadi: Arabxon madrasasi 1616-yil, Qutlimurod inoq madrasasi 1809-yil, Sherg'ozixon madrasasi 1719-yil, Xo'jamberdi madrasasi 1688-yil, Muhammad Amin inoq madrasasi 1765-yil, Qozi Fozilbek madrasasi 1799-yil, Arabxona madrasasi 1810-yil, Polvon ota madrasasi 1810-yil, Olloqulixon madrasasi 1835-yil, Ko'hna imorat madrasasi 1836-yil, Xo'jash mahram madrasasi 1839-yil, Gadoy Niyozboy madrasasi 1840-yil, Yoqub mehtar madrasasi 1840-yil, To'ra madrasasi 1841-yil, Mirza tojik madrasasi 1842-yil, Rahimqulixon madrasasi 1843-yil, Rahmonberdiyev madrasasi 1843-yil, Muhammad Aminxon madrasasi 1851-yil, Abdullaxon madrasasi 1854-yil, Tosh madrasasi 1859-yil, Amir to'ra madrasasi 1870-yil, Otajonboy madrasasi 1871-yil, Muhammad Rahimxon II madrasasi 1871-yil, Muhammad Niyoz devonbegi madrasasi 1871-yil, Muhammadmurod devonbegi madrasasi 1871-yil, To'ramurod madrasasi 1871-yil[10]. Umumiy holatda A. Boltayev Xiva shahrida 64 ta madrasa bo'lganligini qayd qiladi[11]. Xorazm madrasalarining qurilish arxitekturasini 1-2 qavatli binolar bo'lib, katta va go'zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o'ralgan hovlisi, darsxona va masjidi bo'lib, ba'zi madrasalar yonida minora ham qurilgan. Madrasalarning hammasida ichki hovli atrofidagi ikkita talabaga mo'ljallangan yotoqxonalar uzoqdan kelgan o'quvchilarga berilgan. Har bir hujra ichida maxsus olov yoqadigan joyi va oqova suv ketadigan "to'shshi" (kanalizatsiya) adanlari bor. Madrasalar peshtoqi va minoralar har xil rangli naqshlangan koshinlar bilan bezatilib, ularga Qur'ondan oyatlar, sohibini ulug'lovchi so'zlar hamda qurilish sanasi yozilgan[12, B.31-32.].

Uslubiy asoslar: Madrasalarda o'qish muddati chegaralanmagan bo'lib, ayrim talabalar bir kursda 3-4 yil, ayrimlari esa 8-10 yillab o'qishgan. O'qish esa uch kursda olib borilgan: "adno" – boshlang'ich, "avsat" – o'rta va "a'lo" – oxirgi kurs. Boshlang'ich kursda arab grammatikasi, mantiq, shariat qoidalari, diniy urf-odatlar, arab va fors tilidagi adabiyotlar o'rgatilgan. Qolgan ikki kurs davomida talabalar "taxsib" (mantiq), ilohiyot, huquqshunoslik va boshqa fanlarni qunt bilan o'rganishgan[13, B.44.]. Talabalarga haq berish madrasalarda o'qish yo'lga qo'yilgandan beri mavjud bo'lib, uning miqdori talabalarning o'qishdagi darajasi – pog'onasiga, guruhiga qarab a'lo, avsat, adno taqsimotlar asosida belgilangan[14, B.132.]. Madrasa muallimlari oxun va mudarris deb yuritilgan. Madrasaga 15 yoshga to'lgan har bir musulmon farzandi, savodi va iqtidori inobatga olingan holda qabul qilinardi. Ularni "mulla" yoki "tolibi ilm" deb ataganlar. Ularni qabul qilishda millati e'tiborga olinmagan. Sherg'ozixon madrasasida mashhur turkman shoiri Mahtumquli va qorqqalpoq shoir Hojiniyozlar tahsil olganlar. Yilning to'rt faslida haftaning dushanba, seshanba, shanba va yakshanba kunlari mashg'ulotlar olib borilgan[14, B.45.]. Madrasani tugatish imtihonlari xon hazratlari tomonidan tasdiqlangan maxsus hay'at a'zolari tomonidan qabul qilingan. Xon imtihonlarda qatnashib tolibi ilmlarga savollar bergan[15,B.71.].Ogahiyning guvohlik berishicha, Olloqulixon 1828 yilda olimlar o'rtasida savol-javob ya'ni ularni attestatsiyasini o'tkazib, xonlikdagi barcha oxunlar va mudarrislarini imtihon qilgan. Bu muhim ishni amalga oshirish Olloqulixonning o'zidan ham chuqur saviya va bilimni talab qilardi edi. Bu muhim ishni amalga oshirish orqali barcha madrasalarda talabalarga bilim berish saviyasi yuqori ko'tarilardi[15,




B.64.]. Tadqiqotchi O. Mutalov ulamolar ham imtihon qilinganligiga to'xtaladi va shunday fakt keltiradi: Xiva xonlari madrasalarga oxun va mudarrislikka tayinlashdan oldin nomzodlarni o'zlari imtihon qilar va "ochiq dars" o'tkazishni so'raganlar. 1828-yilda Olloqulixon tashabbusi bilan Xiva xonligida ulamolar imtihondan o'tkazilgan. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga mufti, a'lam, oxun, mukarrir unvoni berilardi. Bitkazuvchilar ilohiyot ilmini mukammal o'zlashtirishar, ayni kezda dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lishardi. Xiva madrasalarini tugatgan talabalar orasida shoirlar, muarrixlar, xattotlar, olim va fozil kishilar yetishib chiqqani fikrimizning dalilidir[13, B.44.].

Madrasalar islom ta'limi, ilm-fan va ma'naviy hayot markazlari sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu madrasalar asosan hukmdorlar yoki yuqori martabali amaldorlar tashabbusi va mablag'lari bilan barpo etilgan. Madrasalarda faqat diniy ta'lim emas, balki huquqshunoslik, mantiq, astronomiya, falsafa kabi ilmlar o'qitilgan bilim maskanlari sifatida xizmat qilgan. Ayrim madrasalar ixtisoslashtirilgan bo'lib, tibbiyot, geografiya, musiqashunoslik, xattotlik kabi san'at sohaları ham o'qitilgan. Madrasalar davlat idoralari uchun mutaxassislar, maktabdorlar va san'atkorlar tayyorlab bergan[12, B.31.]. Xivadagi Arab Muhammadxon, Sherg'ozixon, Olloqulixon, Muhammad Aminxon, Muhammad Rahimxon II madrasalarida Xivaning taniqli tarixchilari, shoir va adiblari, islomiy ilmlarning yirik bilimdonlari, huquqshunoslari, musiqa ilmining ustalari tez-tez to'planib, ijodiy ishlari xususida suhbatlashishgan, bahs-munozaralar o'tkazib turganlar[16, B.25.]. Ular qatorida xon saroyida ijod qilgan Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy, Otaniyoz Niyoziy kabi o'nlab ijodkorlarning nomlarini ko'rsatish mumkin[9, B.66.]. Bu borada Y. Jelyabujskiyning fikrlari o'rinli, u shunday yozadi: "Xiva va turkmanlar yurtida madrasa va o'quv yurtlari juda ko'p. Ularning qurilishi va faoliyati uchun hukmdorlar ham, xalq ham kuchli jonbozlik ko'rsatishadi. Masalan, Xivada bir necha madrasalar mavjud, ayniqsa, Madaminxon madrasasi mashhurdir. Xalqni o'qitish va ma'lumotli qilish bilan dindorlar shug'ullanishadi" [17, B.54.].

Tahlil: Xivadagi madrasalarning faoliyatini ta'minlash maqsadida maxsus vaqf yerlari ajratilgan. Vaqf yerlari va mol-mulkilari vaqfnoma deb ataluvchi maxsus hujjat orqali rasmiylashtirilgan bo'lib, vakf instituti Xivadagi diniy va ta'lim muassasalarining iqtisodiy bazasini ta'minlovchi asosiy mexanizm bo'lgan. Arabcha "vaqf" so'zi "turish", "to'xtamoq", "doimiy holatda qolish" kabi ma'nolarni anglatadi. Vaqflar Xivada diniy-ma'rifiy muassasalarni saqlash va ularning uzluksiz faoliyat yuritishida hal qiluvchi ro'l o'ynagan.

Tashqi savdo rivoji va xorijlik savdogarlarga qulaylik yaratish uchun Olloqulixon tomonidan 1832-1833 yillarda qurilgan karvonsaroy devonbegi savdo uchun tamg'a puli olgan va bu pul davlat xazinasiga topshirilmay, balki 1835 yilda qurilgan Olloqulixon madrasasi kutubxonasini kitob bilan ta'minlash uchun sarflangan[12, B.31.]. Demak hamma zamonlarda bo'lganidek, Xivada kitobatchilik va kutubxona ishiga ham alohida e'tibor berilgan[15, B.179.].

Madrasalarni iqtisodiy manbai ularga Xudo yo'lida inson manfaati uchun hadya etilgan vaqf mulklari: yer-suv, karvonsaroy, bozor, rasta, do'kon, hujra, pul va kitoblar bo'lib, u mulklardan olingan mablag'lar madrasa xizmatchilari, mudarrislar va talabalar, qolaversa, o'sha madrasa ta'mirlari uchun sarflangan. Xiva madrasalarining boshqaruvi mutavalli tomonidan olib borilgan. Mutavalli vaqf yerlaridan kelgan daromadni mudarris, imom, xizmatchilar va talabalarga taqsimlagan[12, B.31.]. Ya'ni oxun, mudarris, muallim, muazzin, farrosh, sartarosh, tanobchi va qorovullarga maosh to'lash bilan shug'ullangan. Madrasaning barcha xodimlari vaqfnomada belgilangan tartibda muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan. Rahmonberdibiy madrasasi vaqfnomasida xodimlar majburiyatlari to'g'risida quyidagilari



keltiriladi: “Har tolibi ilmiykim mazkura madrasa hujrasida istiqomat ko‘rguzur. Har yil ichida beuzri shar’iy paydarpay qirq kun baytutani tark etmasun. Va mudarrisi dog‘i beuzri shar’iy mutavoliyan ikki hafta darsgo‘ylig‘in matruk tutmasun. Va mazkura madrasa masjidining imom va muazzini dog‘i beuzri shar’iy imomat qilmoq, azon va qomatni barpoy tutmoqini mutavoliyan bir hafta tark etmasunlar. Farrosh va sartarosh dog‘i ilmi toliblarining soch va lablarining mo‘yin olmoqda va mazkura madrasaning xas va xashagin supurmak va pok qilmoqda beuzri shar’iy bir hafta tark etmasunlar” [18].

Abdulla Boltayev XX asr boshlarida xonlikdagi vaqf yerlari hajmiga e‘tibor qaratib, ular umumiy yer fondining jami 284326 tanobini tashkil etishini qayd etadi. Shundan sug‘oriladigan yerlar 122855 tanob, ekilmaydigan yerlar 161417 tanobni tashkil etgan. Mazkur umumiy vaqf yeri tarkibida madrasalar ulushi ancha salmoqli bo‘lib, jami 244104 tanobdan iborat bo‘lgan.


Mutavalli madrasa xodimlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ular ustidan nazoratni amalga oshirgan. Belgilangan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan muassasa xodimi va talabalari o‘z vazifalaridan ozod etilgan[9, B.61.]. Shuni qayd qilish lozimki, vaqf tayinlagan mutavalliga vaqf ma‘muriyatining yetakchisi sifatida vaqf mulklarini boshqarish, ularning qayta sarmoyasini ta‘minlash, muassasa xodimlari o‘rtasida vaqf daromadlarini o‘rnatilgan tartibda taqsimlash, vaqf mulklari yo‘naltirilgan muassasa binosini doimiy ravishda ta‘mirlab, lozim darajada tutib turish kabi qator vazifalarni bajarish yuklatilgan. Majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmagan, ishonchsiz va ta‘magir bo‘lgan mutavalli qozi tomonidan vazifasidan ozod qilingan[9, B.61.].

Xulosa. Xiva xonligida hukm surgan iqtisodiy barqarorlik va adabiy-madaniy jarayonlarni qo‘llab-quvvatlanishi natijasida adabiyot, san‘at, tarjimonlik, tarixnavislik, xattotlik, kitobat san‘ati, bastakorlik, maqomchilik, me‘morchilik, binokorlik, hunarmandchilikning barcha turlari yuksak darajada rivojlandi [19, B.26.].

Xiva shahrida saqlanib qolgan me‘moriy yodgorliklar orasida madrasa, masjid, minora va maqbaralar alohida o‘rin tutadi. Ushbu binolar nafaqat arxitektura, balki tarixiy, diniy va ma‘rifiy jihatdan ham ahamiyatga ega bo‘lib, shahar madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Худойберганов К. Хоразм хонлари. Тошкент: Академнашр, 2019.- Б. 32.
- 2.История Хорезма с древнейших времен до наших дней. –Т.: «Фан», 1976. –С. 106-бет.
- 3.Қozoқов Э. Хоразм Республикаси ҳукуматининг ислом дини ва руҳонийларга нисбатан олиб борган сиёсати (1920-1924 йиллар): Тарих. фан. номз. дисс. – Урганч: 1996. – Б. 42.
- 4.Раҳмонова Ю. Хива тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 58
- 5.Гулямов Я. Г. Памятники города Хивы // Труды Узбекстанского филиала АН СССР. Серия I. История и археология. Вып. III. – Ташкент: Фан, 1941. – С. 40-41.
- 6.Раҳим Д., Матрасулов Ш. Феруз шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991.– Б.100.
- 7.Қўшжонов О. Хоразм – аср бошида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1994 йил 6 май. 16-17 сон. – Б. 2.
- 8.ЎЗМА, И-125 фонд, 1 рўйхат, 596 иш, 1-8 варақ.
- 9.Юсупов Ҳ. XIX -XX аср бошларида Хива мадрасалари. Тарих.ноз.дисс. Урганч, 2024. –Б. 67.
- 10.Болтаев А. ЎзФАШИ. – №9320, 85 варақ.
- 11.Болтаев А. Хива тарих музейи. 39 дафтар. – Б. 45.



-
12. Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 31-32.
 13. Абдурасулов А. Хива (тарихий – этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 44.
 14. Жалилов О. Хива мадрасалари ва уларнинг иқтисодий таъминоти ҳақидаги хужжатлар // Тошкент: Шарқшунослик, 1997. № 8. – Б. 132.
 15. Давлатёр Раҳим. Оллоқулихон. Урганч, Қувончбек-Машхура, 2018. -Б.171.
 16. Садуллаев А., Сотлиқов А. Хоразм Маъмун академиясининг тарихий илдизлари. – Нукус-Урганч: “Қорақалпоғистон”, 2003. – Б. 254.
 17. Желябужский Е. Очерки завоевания Хивы. (9-картинами). – Москва: Издание народного журнала Грамотей, 1875. - С. 53-54.
 18. Ичан-Қалъа давлат музей кўрикхонаси фонди. ГХМЗ КП №1327.
 19. Эрназаров Ф. Хоразмдаги XIX аср маданий ҳаёти... Тарих. фан. ном. дисс... автореф. – Т., 2005. -Б. 26.